

MAKTABDA ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARINI O‘RGANISH

Rustamov Qalandar Ravshan o‘g‘li

TDPU talabasi

E-mail: rustamovqalandar618@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodini, “Xamsa” asarini o‘qitishning ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyati, o‘qitish metodlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, hayoti, ijodi, o‘qitish, “Xamsa”, she‘riyat, xulq, mumtoz, ta‘limiy, axloqiy, tarbiyaviy.

Mustaqillik yillarida mumtoz adabiy merosimizga, xususan, Alisher Navoiy ijodiga munosabat tubdan yangilandi. Endilikda shoir adabiy merosini chuqurroq tadqiq etish, u ilgari surgan g‘oyalarning falsafiy asoslarini teranroq anglash, asarlarida ifodasini topgan komil inson muammosi mohiyatini tushunishga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘quvchilarni komil insonlar qilib tarbiyalashda Navoiy asarlari muhim o‘rin tutadi. Maktab o‘quv dasturlarida Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishga yetarli miqdorda soatlar ajratilgan. 5-sinflarda Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan “Sher bilan Durroj” hikoyati, 7-sinfda esa “Xamsa”ning “Sab‘ai sayyor” dostonidagi beshinchi iqlimdan kelgan musofir hikoyati – “Mehr va Suhayl” hikoyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, maktab ta‘limida Navoiy g‘azallari, ruboiy va tuyuqlari, aforizmlari ham o‘rgatiladi.

O‘quvchilarda mutafakkir shoir ijodiga qiziqish uyg‘otish ko‘p jihatdan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Buning uchun o‘qituvchi ko‘p izlanishi, o‘qib-o‘rganishi va to‘plagan bilim va tajribalarini amalda qo‘llay olishi lozim. O‘qituvchi faqat darslikda berilgan ma‘lumotlar bilan cheklanib qolmay, Navoiy asarlari, hayoti va ijodi haqida yaratilgan asarlar va tadqiqotlar bilan tanishishi talab etiladi.

1480-1490-yillar Alisher Navoiy uchun badiiy ijodda samarali davr bo‘ldi. Shoir 1483-1485-yillar oralig‘ida panj ganj – “Xamsa”ni yozib tugalladi. Oradan ko‘p o‘tmay ketma-ket nasriy asarlar yaratdi. 1488-yilda “Tarixi mulki ajam” (“Ajam shohlar tarixi”), “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlarini yozdi. Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri “Xazoyin ul maoniy” (“Ma‘nolar xazinasi”)ni tuzish bo‘ldi. 1492-

1498-yillarda tartib berilgan va to‘rt devondan iborat bu ulkan she‘riy kulliyot shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik she‘rlarini qamrab olgan.

“Sab‘ai sayyor”dan olingan parcha g‘oyat qiziqarli sujetga egaligi bilan ajralib turadi. Ammo o‘qituvchi asarni o‘tish jarayonida sujetgagina e‘tibor berib qolmasdan, uning badiiy jozibasi va estetik ta‘sirchanligi e‘tibordan chetda qolib ketmasligi kerak. Buning uchun asardagi eng qaltis vaziyatlarda har bir qahramon holati qanday ifodalanganligiga o‘quvchilar diqqati qaratilishi maqsadga muvofiq. Bu jihatdan Jobir bilan Suhaylning kemandagi to‘qnashuvi, ayniqsa, Mehr tomonidan ozod qilingan Suhaylning qaroqchiga duch kelganda aytgan so‘zlari har ikki obrazning tabiatini ko‘rsatishi jihatidan g‘oyat muhimdir:

Dedikim: “Pahlavonlig‘ ermas ul
Kim, kishi makr birla urg‘ay yo‘l.
Teshib el kemasini hiyla bila,
G‘arq etib suvga bu vasila bila.
Qolmag‘on chog‘da kimsaning joni,
Tutubon band aylagay oni.
Sen agar zohir etting itlikni,
Men senga ko‘rguzay yigitlikni”.

Savol va topshiriqlar bilan ishlash:

Yuqorida keltirilgan kabi ma‘lumotlarni maktab o‘quvchisiga yetkazish Alishe Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishish, hayot yo‘lidan ibrat olish, asarlarining mazmun-mohiyatini anglab yetishga yordam beradi.

Navoiygacha yaratilgan “Xamsa”lar fors-tojik tilida yozilgan bo‘lib, shoir ilk marotaba turkiy tilda besh dostonidan iborat buyuk asarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Navoiy xamsachilik an‘analarini davom ettirar ekan, mavjud syujetlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etmadi. Shoir ularga ijodiy yondashib, hayot mantig‘iga mos holda qayta yaratdi. “Xamsa” dostonlari ijtimoiy hayot, o‘z davri voqeligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularda zamonning muhim muammolariga alohida e‘tibor berilgan. Navoiy dostonlarida davr ahli va zamondoshlarini qiynayotgan muammolarga muayyan darajada javob berishga harakat qilgan.

Maktabda Navoiy ijodini o‘rgatishda o‘quvchilar diqqatini shoir she‘riyatidagi hamda “Xamsa”dagi ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlarga, komil inson siymosining aks ettirilishiga, yuksak odamiylik va ma‘naviyatni chuqur ifodalanganligini qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. J. 7 - T.: Fan, 1991.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -T: 2006.
3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Omanova M.A. The traditional motives in the plot and composition of realistic novels // “Theoretical & Applied Science” International Scientific journal Philadelphia, USA. 2019. - P. 412-415. (Impact Factor - 8.7).
5. Omanova M.A. **Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence** //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223